

**POETIK OLAM KATEGORIYASIGA DOIR NAZARIY QARASHLAR
TAVSIFI**

Yarmatov Isamidin Turgunovich

*filologiya fanlari doktori, Angren universiteti “Til va uni o‘qitish
metodikasi” kafedrası professori.*

El. manzil: isoyor63@gmail.com; Tel.: 994865604

Annotatsiya: *Maqolada adabiy asarlarga xos poetik olam kategoriyasining Evropa, rus va o‘zbek adabiyotshunosligidagi nazariy tavsifi xususida so‘z boradi. Unda Aristotel, Al Farobiy, V.fon Gumboldt, G.V.Gegel, bir qator rus adabiyotshunoslari va o‘zbek olimi H.Boltaboevning bu masaladagi qarashlariga sharh berilgan. So‘ngra Cho‘lponning "Go‘zal" she‘ridan keltirilgan bir band hamda N.Eshonqulning "Urush odamlari" qissasidan parcha tahlili misolida real voqelik – g‘ayrisan‘at, poetik olam esa san‘atga dahldor tushuncha ekanligi, shuningdek, hozirgi zamon o‘zbek nazariy poetikasi taraqqiyotida poetik olam kategoriyasining istilohiy, vazifadoshlik va estetik qimmatini jihatidan printsiplial chegaralarini belgilash dolzarb nazariy muammolardan biri ekanligi to‘g‘risidagi xulosaga kelingan.*

Kalit so‘zlar: *poetik olam, diskurs, modus, motiv, retsipient.*

Annotations: *In this article, in a scientific-critical aspect, the emergence and the essence of the literary concept poetic world in the global and national context. The essence of literary traditions, its revealed secrets of its vitality and types are revealed, transformations to the literature of later times. Aristotle, Al Farabi, V. von Humboldt, G.V.Hegel, a number of Russian literary scholars and Uzbek scientist H. Boltaboev. The example of the point given in Cho Lpon's poem "Go'zal" shows that the real reality is a difference, and the poetic world is an artistic concept, as well as the warmth, functionality and aesthetic value of the category of the poetic world in the development of modern Uzbek theoretical poetics that the establishment of fundamental boundaries is one of the pressing theoretical problems.*

Keywords: *poetic world, literary mode, topos, literary mutual influence, literary discourse, artistic development.*

Badiiy asar syujeti va kompozitsiyasida, shuningdek, modusi va diskursida real voqelikka u qadar mos kelmaydigan, kitobxon aql-idrokini beixtiyor qamrab olib, o‘z sirli dunyosiga tortib ketadigan ideal badiiy olamning shakllantirilishi haqidagi nazariy qarashlar ibtidosi antik va Uyg‘onish davri mutafakkirlarining asarlariga borib taqaladi. Jumladan, Arastu asar muallifining xayolida pishib etilib, qog‘ozga tushgan badiiy olam atrofda kechayotgan voqelikdan nima uchun farzlanishi masalasiga izoh berar ekan, “chunki u tasvir vositasida harakatni gavdalantira olgani uchun ham shoirdir. Hatto unga haqiqatan bo‘lib o‘tgan voqeani tasvirlashga to‘g‘ri kelganda ham u ozmi-ko‘pmi shoir bo‘lib qoladi. Zotan haqiqatan bo‘lib o‘tgan voqealardan ayrimlarining ehtimollik va imkoniyat tufayli qanday sodir bo‘la oladigan bo‘lsa, o‘shanday sodir bo‘lishiga hech narsa xalaqit etmaydi. Bu

jihatdan shoir ularning ijodkoridir” [Arastu. 2011:33], -deb yozadi. Uning shogirdi Al-Farobiyning fikriga ko‘ra esa, “...Inson bir narsani boshqa biror narsada bor, deb tasavvur qiladi. Buning natijasida u narsalarning borligini his va isbot tasdiqlagandagina uning o‘sha narsada borligiga ishonib, o‘shanday qilish mumkin. Hatto bu ishda uning borligi yolg‘on bo‘lib, faqat xayol qilingan taqdirda ham, bu harakat - fe'lni amalga oshiradi. Chunonchi, odamlar aytishadiku, agar kishi biror narsaga nazar solsa, u narsa uning xush ko‘rmaydigan narsasiga o‘xshagan bo‘lsa, u holda uning tasavvurida o‘sha zahotiy oq bu narsaga nisbatan xush ko‘rmaslik hissi paydo bo‘ladi. Bunda u bir narsada biror boshqa narsa timsolini ko‘z oldiga keltiradi. Bu esa, o‘z navbatida, u narsani o‘sha kishi ilgari o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan bo‘lishi va shuning uchun ham u narsaning timsoli uning ko‘z oldiga kelgan bo‘lishi mumkin.” [Al Farobiy. 1979:18-19].

Ma'lumki, poetik olam adabiyotshunoslik ilmida badiiy tafakkur tabiati va ijodkor individual uslubining muhim qirrasini belgilab beruvchi kategoriya sanaladi. Biroq uning nazariy ta'rifi sho'ro davrida yaratilgan adabiyotshunoslikka doir lug'at va tadqiqotlar [Homidiy va b.lar, 1967; Hotamov N., Sarimsoqov B. 1979; Adabiyot nazariyasi. 2 tomlik. 1978,1979; Sulton I. 2005; Sarimsoqov B. 2004;] hamda andijonlik va xorazmlik olimlar tomonidan mustaqillik yillarida e'lon qilingan lug'atlarda [D.Quronov va b.lar, 2010; F.Salaev va b.lar, 2010] ham aks etmagan. Vaqtli matbuot sahifalaridagi ayrim maqolalarda yo'l-yo'lakay bildirilgan mulohazalarni inobatga olmaganda, professor H.U.Boltaboev tuzgan “Adabiyot entsiklopediyasi”ning birinchi jildida badiiy asarda zuhr etiluvchi poetik olam masalasiga taalluqli quyidagicha nazariy fikrlar bayon etilgan: “Badiiy adabiyot ilmiy tushuncha va g'oyalarni obrazli ifodalash bilangina cheklanmaydi, u yangitdan hayot yaratadi, dunyo modelining obrazli shakllarini tavsiya qiladi va bu bilan dunyo, uning asrorini o'rganishda fanga yordam beradi. Eynshteyn suhbatlaridan birida qaysidir shogirdiga: “sen tabiat qonuniyatlarini yaxshi bilasan, lekin daholik mohiyatini anglamaysan” degan. Adabiyot badiiy va ilmiy tafakkur sohiblaridagi ana shu daholik mohiyatini anglashga yordam beradi. Chunki adabiy daholikning kishilik tarixidagi o'rni ilmiy daholikdan kam emas. Aksincha, ilmiy daho qudrati bilan yaratilgan kashfiyotlar mohiyatini tushunishda badiiy adabiyot ustuvorlik qiladi” [Boltaboev H., 2014,2015;]. Bu fikrlarni o'rganilayotgan masala xususida o'zbek adabiyotshunosligida bildirilgan eng yaxshi ta'rif deb hisoblash mumkin.

Shunga qaramay, o'zbek adabiyotshunosligida poetik olam tushunchasiga doir fikrlarni nazariy jihatdan umumlashtirish va tizimlashtirish, uning mazmun-mohiyatidagi invariant ma'no talqinlariga aniqlik kiritish va istiloqiy chegarasini belgilash, shu asnodan badiiy olamning nazariy-struktural modelini shakllantirish masalasi to'laligicha ochiqlandi, deb bo'lmaydi. Kezi kelganida ta'kidlab o'tish joizki, bu yil etmish yillik to'yini nishonlayotgan professor H.U.Boltaboev tuzgan “Adabiyot entsiklopediyasi”ning birinchi va ikkinchi jildlari ilmiy tadqiqot institutlarining yirik bo'limlari birgalikda amalga oshiradigan mehnatga teng ishdir. Undagi eng adolatli va ma'qul yondashuv shundan ibratki, adabiyotshunoslikka oid avvalgi qomus va lug'atlardan farqli ravishda "evropatsentriзм" tamoyilidan voz kechilgan. Milliy estetikamiz va badiiy tafakkurimizning sarchashmalari turk dunyosi va yaralganidan buyon u bilan yondosh yurgan Sharq falsafasi, axloqi hamda Islom tamadduniga xos

qadriyatlar fonida yoritilgan. Ana shu sifatiga ko‘ra u Yangi O‘zbekiston nazariy poetikasidagi kontseptual yondashuv namunasi sifatida baholanishga loyiq.

Shunday qilib, o‘zbek adabiyotshunosligida poetik olam tushunchasiga berilishi lozim bo‘lgan nazariy ta’rif kechikishining sababi, bizningcha, badiiy adabiyotga san’atning emas, ijtimoiy ongning bir turi sifatidagi, shuningdek, muallifning voqelikni badiiylashtirish imiquqida ko‘rinadigan Alloh in’om etgan noyob iqtidorini baholash o‘rniga ijtimoiy mansubiyati bilan aloqador vulgar-sotsiologik yondashuv oqavalarining ta’siri bilan izohlanadi. Ya’ni Sho‘ro mafkurasi san’atning voqelikka estetik munosabati hamda badiiy asar voqealarini ularning hayotiy analogi bilan qiyosan tahlil hilishdek muhim masalaga nazariy poetikaning noaktual jabhasi deb qarab keldi. Dunyodagi keng kitobxonlar ommasi, aytaylik, I.Bunin, M.Bulgakov va Lev Tolstoy asarlarining o‘z tillariga tabdilini izlab o‘qiganlari holda M.Gorkiy, M.Sholoxov va A.Fadeev romanlarini hozir o‘qimasliklarining sababi shundan.

G‘arb adabiyotshunosligida poetik olam kategoriyasi belgilarini nazariy jihatdan oydinlashtirish say’i harakati ko‘proq V. fon Gumboldt faoliyati bilan bog‘liq. U ushbu masalaning falsafiy-gnosiologik va lingvopoetik xossalarini yoritarkan, jumladan, poetik olamning konstant sajiyasini retsipientning badiiy-estetik tafakkur darajasiga bog‘laydi [V. fon Gumboldt: 1985;]. G.V.F. Gegel ham shunday qarashni ma’qullaydi. U, jumladan, quyidagicha yozadi: "...Tabiatdagi go‘zallikni san’at go‘zalligi bilan yonma-yon qo‘ygan holda aytish mumkinki, badiiy go‘zallik tabiatnikidan a’lodir. Chunki san’atdagi go‘zallik ruh zaminida yuzaga kelib, qayta yaratilgan go‘zallikdir, modomiki, ruh ijodiyoti tabiat, uning narsa-hodisalaridan yuksak ekan, san’atdagi go‘zallik ham shu darajada tabiiy go‘zallikdan ustun turadi. Shuningdek, inson miyasida rasman shakllangan arzimas uydirma ham tabiatning har qanday ne’matidan yuksakdir, negaki, har qanday fantaziya ma’naviy hodisa, erkinlikdir ...Tabiatdagi go‘zallik ruh go‘zalligining refleksi, in’ikosidir. Bizning qarshimizda bu erda go‘zallikning nomukammal, notugal nusxasi gavdalanadi, nega deganda, u substantsiya jihatidan faqatgina ruhda mavjud bo‘ladi. ...San’atning bu vazifasi uni din va falsafa bilan yaqinlashtiradi, biroq uning o‘ziga xosligi shundaki, u, hatto, eng ulug‘vor predmetlarni ham tabiat va uning namoyon bo‘lishi, sezgi va kechinmalarga xos hissiy shaklda gavdalandiradi. "[G.V.F. Gegel: 2014;].

Sobiq Sho‘ro adabiyotshunosligida D.S. Lixachev 70-yillarning so‘ngida e’lon qilgan “Badiiy asarning ichki dunyosi” (“Vnutrenniy mir xudojestvennogo proizvedeniya”) maqolasi diskurs nazariyasi va poetik olam kategoriyasini anglash yo‘lidagi dadil qadam bo‘ldi [D.S. Lixachev: 1968]. Shundan so‘ng badiiy asarga, unda bilvosita aks etgan ichki poetik dunyoga san’at mevasi sifatidagi yondashuv S. Bocharov, M. Girshman, V. Fedorov, O. Fedotov, A. Jolkovskiy, Yu. Heglov, O. Kling, M. Gasparov, Yu. Apresyan, S. Pavlov, M.Baxtin, Yu. Lotman, S. Shatalov, R.D.Tamarchenko, V. Xalizev tadqiqotlaridan o‘rin oldi (ular tadqiqotlarining ro‘yxatini keltirish ushbu kichik maqola hajmini kengaytirib yuborgan bo‘lur edi - I. Ya.). Ammo o‘rganilayotgan muammoga bevosita aloqador bo‘lgan N.Chertkova maqolasi nomini tilga olmaslik noxolislik sanalishi mumkin. [N.Chertkova: 1982]. Ularning poetik olam nazariy qirralarini belgilashga qaratilgan tadqiqotlari mohiyatan sof adabiyotshunoslik hamda lingvopoetik o‘ramdagi ikki xil izlanishlarga ajraladi. Biroq har

ikkisida poetik olamning struktural uzvlari ustuvor (dominant) o‘rin tutadi. Shundan kelib chiqib, yakdillik bilan ta’kidlanadiki, poetik olam - dunyoning ijodkor ongida shakllangan rangdor va bo‘rttirilgan, hayajonli va ta’sirchan manzarasi (kartinasi).

Masalaning yana bir muhim jihati shundaki, ijodkor miyasida paydo bo‘lgan poetik olam “tashqi qobiq”, ya’ni nutq tizimi bilan o‘ralgan estetik ahamiyatli matndagi universal munosabatlar tizimidan iborat. Boshqacha qilib aytganda, badiiy asar poetik olamning qobig‘i. Uning mazmunida aks etadigan yoki determinial implitsit yo‘sinida anglanadigan ob’ektiv borliq hodisalari va ruhiy kechinmalar esa ichki mohiyatni belgilaydi. M. Baxtin poetik olamning ichki kechimidagi xronotopning o‘rniga katta e’tiborni qaratgan edi. Zotan xronotop kechimiga xos belgilar bu ulkan faylasuf va adabiyot nazariyotchisining qariyb barcha asarlariga durj etilgan. Bu o‘rinda poetik olam tushunchasi bilan adabiy-badiiy tizim tushunchalari o‘rtasidagi o‘xshash vazifadorlik va estetik definitsiya mohiyatiga ko‘proq ahamiyat berish lozim. Chunki ulardan birinchisi mazmunning bo‘liqligi, badiiy mantiqqa asoslanishi va uzviyligini ifodalasa, ikkinchisi murakkab va ko‘pqatlamli badiiy ifoda tizimi, inchunun, badiiy o‘zlashtirilgan va qayta o‘zgartirilgan epik olam orqali bo‘y ko‘rsatadi. Buning isbotini Cho‘lpon lirikasining misolida ham ko‘rish mumkin. E’tiborimizni shoirning mash’ur "Go‘zal" she’ridagi birinchi band mazmuniga qarataylik:

"Qorong‘u kechada ko‘kka ko‘z tikib,

Eng yorug‘ yulduzdan seni so‘raymen.

U yulduz uyalib, boshini bukib,

Aytadir: "Men uni tushda ko‘ramen..." [A.Cho‘lpon: 2007].

Hamma har tunda kuzatishi mumkin bo‘lgan qorong‘i osmondagi charog‘on yulduzlar jilvasi Cho‘lpon bizning badiiy idrokimizni boshlab kirayotgan poetik olamda daf‘atan quyidagicha sirililik va ramziylik assotsiyatsiyasini qo‘zg‘ashi hech kimda shubha uyg‘otmasa kerak:

1. Qorong‘i osmondagi eng yorug‘ yulduzga murojaat qilish mumkinmi? Undan (nega undan?) nima (kim) haqida so‘ralayapti?

2. Eng yorug‘ yulduz berilgan savolga javob berishdan nega "uyaladi"? Nega "boshini bukadi"?

3. Eng yorug‘ yulduz o‘ngida emas, faqat tushida ko‘radigan narsa nima?..

Ma’lumki, she’rning keyingi bandlarida lirik qahramon shunday savol bilan yuzlashadigan Oy va boshqa tamsillar imiquqida ham "go‘zal" nimaning ramzi, degan qiziqish ortib boraveradi. Shoir esa uni biron o‘rinda ochiq aytmaydi. Biz uchun ana shu jihati muhim. Cho‘lpon bu ajoyib she’rida shakllantirgan zavqli poetik olam ruhiyatimizni g‘or tubidagi singari tilsimni ochish sari etaklaydi va pirovardida "go‘zal" - millat boy berayotgan hurlik ekanini aqlan anglaymiz.

Albatta, ijodkor iste’dodining aqliy va ruhiy hosilasi bo‘lgan poetik olam o‘rnida qo‘llanilgan badiiy so‘z vositasidagina go‘zal tajassumini topadi va retsipient dilini rom etadi. Mana bu dramatik holatga diqqat bilan e’tibor bering:

" Normat ko‘rinishidan ham, harakatidan ham aqlan ozgandi. Uning ko‘z kosalari kattalashib, yuzi qoraya boshlagan edi. Ko‘zlari qonga to‘lgandi. U erda tuproq yalab yotgan

Anziratning yoqasidan ushlab, lip etib ko‘tardi-da, qo‘liga sochini o‘rab, nafrat va jirkanish bilan so‘radi:

- U kim?! Kim, qanjiq?! Aytmasang, hozir burda-burda qilaman.

Uning tovushi xirillab, bo‘g‘ilib chiqardi. Anzirat holsizgina ko‘zlarini yumib oldi.

-Aytmaydi, buzuqlik qilishga qilib, endi tilini qisib o‘tiradi... Qaranglar... voy, sharmanda, voy... Butun qishloqni sharmanda qildi.

- Kim edi? Kim u nokas?! Hozir chopib tashlayman!-dedi Normat uning bo‘yni aralash qamchi solarkan.

- Undan gap so‘raguncha o‘ldir, - deb baqirdi Biydi momo dag‘-dag‘ titrab.

Qishlog‘imiz ustidan nega kulpat arimay qoldi desam, gap buyoqda ekan-da. Hoy, odamlar, urushga ham mana shundaylar sabab bo‘ladi, mana shundaylarning dastidan urush kelib chiqadi. Bolalarimiz qon to‘kadi, bu esa buzuqlik qip yuradi. Toshbo‘ron qilinglar uni. Qornida bola bo‘lguncha qishlog‘imizni bulg‘ab yurgan. Yana eri bilan indamay yashay bergan, bilmaydi deb o‘ylagan..." [N.Eshonqul: 2005].

Nazar Eshonqul so‘z vositasida chizgan kartinada "jangda halok bo‘ldi" deb qoraxat yozilgan er (Normat polvon) uch yildan so‘ng bir oyog‘idan ajralib qish kunlaridan birida uyiga kirib kelib turibdi. Uning azasini ochib, o‘zini beva sanab yurgan xotin (Anzirat) yo‘qchilik va qizchasining o‘lar holatda kasalligi tufayli Mirzaqul raisning hiylali sirtmog‘iga ilinib, undan homila orttirgan. U gapdon qo‘shni xotinning oldida to‘satdan qayd qilib, siri oshkora bo‘ladi... Yozuvchi sovuqqonlik bilan holatni bayon qilayapti, emotsiyaga berilib, biron bir personajni ayblamayapti. Qissaxon uch yil o‘ldiga chiqib, to‘satdan kelgan nogiron jangchimi, farzandi omon qolishi uchun o‘zi istamagan holda xiyonat qilgan yosh onami, qo‘lidagi imkoniyatlar vositasida yosh, go‘zal, ammo yordamga muhtoj onani xiyonatga botirgan Mirzaqulmi, milliy or-nomusni himoya qilayotgan kampir ammami, bu oila fojiasiga goh nafrat, goh achinish bilan qarayatgan qishloq ahlimi haq ekanligini frontorti hayoti va uning axloqiy mezonlaridan kelib chiqib xulosa chiqarmog‘i lozim.

Asardagi badiiy diskurs mantig‘i bosh aybdor sifatida hamma zamonlarda hamma xalqlar qoralagan qirg‘inbarot urushga ishora qiladi. Muallif xayolan sakson yillar ortga qaytib tiklagan badiiy haqiqat va poetik olam modusi shuni taqazo etadi.

Shuni alohida ta‘kidlab o‘tish joizki, Sho‘ro adabiyotshunosligi terminologiyasida bir adabiy hodisani bir necha nom bilan yuritish deyarli odat tusiga kirgan edi. Xususan, “poetik olam” istilohi o‘sha davrlarda yaratilgan ilmiy manbalar va darsliklarda "tekst, badiiy matn, estetik tekst, kontekst, intertekst, badiiy olam, badiiy butunlik, intentsion predmet, virtual reallik, olam kartinasi, dunyo modeli, badiiy reallik” va boshqa xil sinonimik qator bilan yuritilgan. Endi bu xilma xillikka chek qo‘yish vaqti keldi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi o‘zbek adabiyotshunosligida dunyo fanida allaqachon yuz bergani singari eskirgan stereotiplar va primitiv qoidalardan voz kechilib, badiiy so‘z namunalarini san‘at o‘lchamlari bilan baholash jarayoni boshlandi. Binobarin, bugungi adabiy-ijodiy jarayonda qaysi adabiy tur yoki janr namunasi bo‘lmasin, undagi poetik olam mohiyatiga kirib borish va uning individual qirralarini ob‘ektiv talqin qilish ehtiyoji nazariy poetika jabhasidagi yangi fundamental tadqiqotlar uchun yo‘l ochadi. Shunday ekan, endilikda yuqorida sanalgan istilohiy xilma-xillikka ham barham berib keltirilgan atamalar



mazmunini umumiy tarzda anglatadigan "poetik olam" birikmasini barqaror qo'llash, bizningcha, maqsadga muvofiq ko'rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Arastu. Poetika (Nafis san'atlar haqida). Axloqi kabir (Katta axloq haqida). Ritorika (Xitoba). Toshkent. «Yangi asr avlodi». 2011. - B.33.
2. Farobiy Abu Nasr. She'r san'ati. Arabchadan tarjima, izoh va mukaddimalar muallifi A. Irisov.-T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979. -B.18-19.
3. Homidiy H., Abdullaeva Sh., Ibrohimova S. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. T.: O'qituvchi, 1967;
4. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. T.: O'qituvchi, 1979, 1983;
5. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. Birinchi tom. Adabiy asar. -T.: Fan, 1978;
6. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. Ikkinchi tom. Adabiy asar. -T.: Fan, 1979.
7. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. - Qayta ishlangan va to'ldirilgan uchinchi nashri. -T.: O'qituvchi, 2005;
8. Sarimsoqov B.I. Badiiylik asoslari va mezonlari. -T.: 2004;
9. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliev M. Adabiyotshunoslik lug'ati. -T.: Akademya nashr, 2010;
10. Salaev F., Qurboniyozov G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so'zligi. T.: Yangi asr avlodi, 2010.
5. Boltaboev H. Adabiyot ensiklopediyasi. (Atamalar, istilohlar, siymolar, asarlar va nashrlar). T.: MUMTOZ SO'Z, 2014. - B.207.
6. Gumboldt V. Esteticheskie opi'ti`. Pervaya chast. "O Germane i Dorotee" GeteG`Gumboldt V. Yazo`k i filosiya kultura. M.: Progress, 1985. - S.160.
7. Gegel G.V.F. Poeticheskoe i prozaicheskoe proizvedenie iskusstva G` Gegel Estetika: V 4 t. - M. "Iskusstvo", 1971. - T.3. - S.362. (Rus tilidan Mahmud Abdullaev tarjimasi. "Sharq yulduzi" jurnali, 2014 yil, 1-2-sonlar).
8. Lixachev D.S. Vnutrenniy mir xudojestvennogo proizvedeniya. Lixachev D.S. Voprosi literaturi`. - 1968. - №8. - S.74-87.
9. Chertkova N. Poeticheskij mir kak literaturovedcheskaya problema. G`G`"Pivdenniy arxiv" (Zbirnik naokovix prats. Filologichni nauki). "Pivdenniy Arkhiv" (Collected papers on Philology). UDK 26.161.1G`82-1.
10. Abdulhamid Cho'lpon. Go'zal. tafakkur. net.
11. Nazar Eshonqul. Urush odamlari (qissa). Shamolni tutib bo'lmaydi. Qissa va hikoyalar. Toshkent. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2005.-B.131.